

FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA SO'Z SEMANTIK SPESIFIKASINING BA'ZI JIHATLARI

Malikova Tashbuvi Orzikulovna

Uzbekiston Respublikasi IIV Sirdare

IIV akademik litsey Fransuz tili fani o'qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada so'z semantik tuzilishi xamda uning o'ziga xos jihatlari va semantik analogiyaning funksional kategoriyalari taxlili hususida fikr yuritiladi.

Abstract: This article analyzes the semantic structure of the word, its features, and the functional categories of the semantic analogue

Аннотация: В данной статье анализируется семантическая структура слова, его особенности и функциональные категории семантического аналога. Ма'lumki, so'z semantik xususiyatlarini ochish uchun uni faqatgina til tizimida o'rganish kifoya qilmaydi. Shuning uchun so'z semantik spesifikasini til tizimi bilan bir qatorda nutqda o'rganish zarurdir. Nutq jarayonining o'ziga xos tomoni mavjud til imkoniyatlarini funkstional me'yor asosida saralanishi, shakllanishi hamda modifikasiyaga kirishuvida aks etadi. Semantik analogiyaning mavjud funksional kategoriyalari nutqda ya'ni matnda namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, nutq tildan farq qilib doimo ma'lum maqsadga yo'naltirilganligi va muayyan vaziyatga aloqadorligi bilan xarakterlanadi. Shu bilan bir qatorda vaziyat nutq bilan oddiy bog'lanib qolmasdan, balki unga muhim informativ qimmat kasb etuvchi asosiy komponenti hisoblanadi [1.66].

Gap, fraza, kontekst tarkibiga qo'shilgan har bir so'z o'zining barcha konturlarini o'zi ishtirok etayotgan gap, fraza, kontekst maqsadiga muvofiqlashtiradi va ob'ektiv borliqning real qismi bo'lishi ma'lum vaziyatni formal planga olib chiqishda ishtirok etadi, ya'ni lingvistik jihatdan shu vaziyatni tasviriy bayonida ishtirok etadi[2.104].

Shubhasiz, matn yoki nutqiy vaziyat so'zning mavjud semantik potentsiallarida realizasiyalashuvini ta'min etuvchi asosiy lingvistik arena hisoblanadi. Aynan, inson tafakkurining mahsuli bo'lmish matnda so'z o'zining tabiiy funkstional rakursini topadi va shu bilan bir qatorda boshqa lingvistik imkoniyatlar bilan hamkorlikda real borliq haqidagi tasavvurni formallashtirishda, ifoda planiga olib chiqishda ishtirok

etadi[4.110]. Matnda barcha til elementlari nutqiy semantizasiyaga kirishadi. Nutqiy semantizasiya til elementlarining kommunikativ jihatdan to'g'ri realizasiyaga kirishini ta'min etadi.

Nutqiy semantizasiya shu tilda so'zlashuvchi jamoa tamonidan yaratilgan, semantik sintagmatika va funkstional me'yorlar qonunlariga asoslangan til elementlari ma'nolarining konkret vaziyatlarda realizastiyalashuvidan iboratdir.

Nutqiy semantizasiya o'z aksini semantik sitagmatika qonunlarining bir qator shakllangan shakllarida topadi. Ulardan biri umumiy klassemalarning sintagmadagi iterativ (takroriy) ishtirokidir.

A.Pote va A.Gremasning fikricha, so'zlarning to'g'ri tuzilmali birikishda umumiy semaning ishtiroki zarur manba hisoblanadi[3.11].

Umumiy klassemaning differensial semadan farqi shuki, u biriktiruvchi, bog'lovchi harakterga ega bo'lib sintagmada iterativ tarzda namoyon bo'ladi va shu bilan bir qatorda informativ jihatdan sintagmani to'g'ri qurilishini ta'min etadi. Namuna tarzida quydagi ikki sintagmani misol qilib keltirish kifoyadir: "kasal kishi" va "kasal stul". Birinchi misolda "kasal" va "kishi" umumiy klassema "jonlilik(antroponim)"ka egadir. Shuning uchun sintagma to'g'ri birikish hosil etadi. Chunki umumiy klassema bo'lmish "jonlilik" kategoriyasi har ikki so'zda mavjudligi tufayli takroriy ravishda aks etmoqda. "Kasal stul" sintagmasi esa to'g'ri birikma hosil etmaydi, chunki ular orasida takrorlanuvchi umumiy klassema yo'qdir. Hozirgi kunda umumiy klassemalarning to'liq tarkibi aniqlanmagan. Lekin shunga qaramasdan klassemalar qatoriga asosiy ma'noning quydagi kategorial belgilarini kiritish mumkin: "jonli-jonsiz", "inson-hayvon", "materiallilik - nomateriallilik", "katta yosh - kichik yosh". "erkak-ayol (jins)", "hisoblanuvchi-hisoblanmovchi", "harakat-holat", "o'timlilik-o'timsizlik" va boshqalar.

Semantik analogiyaning barcha kategoriyalari nutqiy semantizasiya asosida kommunikasiyaga chiqadi hamda umumiy semantik sintagmatika qonunlariga bo'ysunadi. Semantik analogiyaning funksional kategoriyalari qatoriga quydagilar kiradi: Semantik darajalanish. Semantik dislokasiya (ko'chish). Semantik kondensasiya.

Semantik analogiyaning har qaysi kategoriyasi nutqda o'ziga xos usulda ishtirok etadi va ma'lum lingvistik imkoniyatlarga nisbatan muayyan analogiya hosil qilish uchun xizmat qiladi.

Biz ushbu maqolamizda semantik analogiyaning funksional kategoriyalaridan biri hisoblangan semantik darajalanish turiga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Bilamizki, kommunikasiyada bir denotatning o'zi turli yo'sinda belgilanishi, nomlanishi mumkin. Bunga sabab har bir denotat bir necha xarakterli tomonlarga ega bo'lib ularning har biri realizastiyada bevosita ajralib til elementlari orqali ko'rinishi mumkin. Bu jarayon shu denotatni nutqda bir necha xil belgilanishiga, nomlanishiga imkon beradi. Ikki kishi bir avtobusni xarakatini kuzatyapti deb faraz qilaylik: ulardan biri avtobusni rangi bo'yicha nomlasa, ikkinchisi uning markasi bo'yicha belgilaydi. Demak, bir denotatning o'zi nutq jarayonida aspektlar bo'yicha bir necha xil nomlanishi, belgilanishi mumkin ekan [5. [http: \ www. Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)].

Bundan ko'rinadiki, bir denotat ifodasi uchun nutqda bir necha so'zlar qatnashishi mumkin. Analogik holat tilning barcha semantik maydonlarida kuzatiladi. Misol uchun, o'zbek tilidagi yo'nalishni anglatuvchi fe'llardan ayrimlari nutqda o'rinjoy hamda ko'rish-sezish fe'llari bilan chatishib, ma'no jihatdan umumlashishi mumkin: U bu yerga ahyon-ahyonda **kelib turadi**. U bu yerda ahyon-ahyonda **bo'lib turadi**. Uni bu yerda ahyon-ahyonda **ko'rib turishadi**.

Mazkur jarayonni semantik ierarxiyada ya'ni semantik jixatdan darajalanish jarayoni asosida kuzatish mumkin. Bunda mazmun jihatdan teng bo'lmagan so'zlarning bir xil predmetlar nominasiyasiga, belgilanishiga ko'ra ishtiroki kuzatiladi. Mazkur jarayon, «keng – tor» ma'noli so'zlarning o'zaro bog'lanib aloqaga kirishuvini o'zida mujassamlashtiradi. Keng ma'noli so'z ierarxik pog'onaning yuqori qismida, tor ma'noli so'z esa ierarxik pog'onaning quyi qismida joylashib o'zaro analogiya hosil qiladilar. Keng ma'noli so'z. Tor ma'noli so'z Ierarxik analogiya asosida so'zlarning darajalanishi quydagicha ko'rinish kasb etadi: Meva (keng ma'noli so'z)

Uzum(tor ma'noli so'z) shaftoli(tor ma'noli so'z) anor (tor ma'noli so'z)

Yuqoridagi sxemamizda ierarxik o'xshash munosabatdagi so'zlarning gradasiya va degradasiya asosidagi darajalanishi farqlanadi.

Gradasiya asosidagi darajalanishga «keng – tor ma'noli » so'zlarning o'zaro munosabat asosidagi analogiyasi kiradi:

Uzum – meva; Shaftoli – meva; Anor – meva.

Gradasiya jarayonida differensial semalar tushirilib qoldirilib so'z predmetning ma'lum bir tipiga nisbatan ishlatiladi.

Degradasiya jarayonida esa differensial semalar kommunikasiyada aks etib so'z ma'lum tip ichidagi muayyan ko'rinishga ega bo'lgan predmetlarga nisbatan ishlatiladi. [6. <http://www.ilm.uz>]

Shuning uchun mavjud jarayonlar orasida semantik transformasiyaning «ma'no

komponentlarini tushirib qoldirilishi» yoki «qo'shilishi» usuli kuzatiladi:

A -----A.a «parranda» _____ «tovuq» (A) (A a)

Gradasiya va degradasiya bir qatorli va ko'p qatorli ierarxiya asosida bog'lanishi mumkin. Bir qatorli bog'lanish: Chumchuq, bedana, bulbul, musicha Ko'p qatorli bog'lanish: Daraxt: Mevali daraxt - Olma, shaftoli, nok

mevasiz daraxt- Tol, chinor, archa. Sintagmada gradasiya semantik neytralizasiya asosida, gradasiya esa semantik konkretizasiya asosida namoyon bo'ladi. Matnda semantik analogiyaning mazkur kategoriyasi ierarxik munosabatdagi giponimik hamda giperonimik sinonimlarni hosil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bo'ronov J.B. Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. T., 1973
2. Абдураззаков М.А. Очерки по сопоставительному изучению разносистемных языков. Т. 1973
3. Ориповна, АИ, Аширбековна, РГ, Абдурауповна, КС, Дехконовна, ТМ, и Нусратуллаевна, АН (2024). Лингвистические основы семантической аналогии во французском и узбекском языках. Library Progress International , 44 (3), 3543-3572.
4. АНОРБОЕВА, И. ТАКРОРИЙ НОМИНАЦИЯ-НУТҚ ИЗЧИЛИГИ ИФОДА ВОСИТАСИ СИФАТИДА. ILMIY XAVARNOMA. НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
Учредители: Андижанский государственный университет им. ЗМ Бабура, (3), 84-87.
5. Анарбоева, И. О. (2024). ФРАНЦУЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА КОРРЕФЕРЕНТ ГАПЛАРНИНГ СТРУКТУРАЛ-СЕМАНТИК ВА ФУНКЦИОНАЛ ЖИХАТЛАРИ. International Journal of Education, Social Science & Humanities, 12(4), 692-697.
6. Oripovna, A. I. (2024). THE PROCESS OF METAPHORIZATION IN DIFFERENT SYSTEMIC LANGUAGES. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(09), 39-40.